

## FARG'ONA VODIYSIDAGI MADANIY YODGORLIKLAR

**Ma'murov Diyorbek**

*FarDu tarix fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Farg'ona vodiysidagi madaniy yodgorliklar haqida so'z boradi. Farg'ona vodiysida odamlar eng qadimgi zamondan buyon yashab istiqomat qilib kelmoqdalar. Bu yerdagi madaniy yodgorliklar qadimgi tosh davridan hozirgi kungacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu yerdan mustye davriga oid manzilgohlar mezolit, neolit eneolit, bronza davriga oid manzilgohlar topib o'rganilgan. shuningdek Farg'ona vodiysi o'rta asrlarda ham gullab yashnaydi. Bu yerda buddaviylik dini ham tarqala boshlaydi. O'rta asrlarda ilm fan juda ham tez yuksalgan edi Farg'ona vodiysida.*

**Kalit so'z va iboralar:** *Farg'ona vodiysi, mustye davri, tosh qurollar, mezolit, eneolit, neolit, bronza davri, selungur, obishir, Quva, Chust madaniyati, buddaviylik dini, arxeologik izlanishlar.*

Farg'ona viloyati O'zbekistonning qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri. Viloyat hududida topilgan tosh davri manzilgoxlari va qoyatoshlariga solingan suratlar vodiya odamlar eng qadimgi davrlardan beri yashab kelganliklaridan darak beradi. Farg'ona viloyatining tosh davri yodgorliklarini 1954-yil A.P. Okladnikov rahbarligidagi arxeologiya otryadi o'rgangan. Vodiyning sharqiy qismidagi Qayroqqum, Xo'jag'or va Uchqo'rg'on makonlaridan mustye davriga oid tosh qurollar topildi. Vodiyning g'arbiy qismidagi qadimgi tosh davri madaniyatiga oid manzilgohlar mustye davridagi Qal'acha, Jarqo'ton va Qapchig'ay tosh qurollar ishlash ustaxonalari topilib o'rganildi. 1958-yil birinchi marta Markaziy Farg'onadan mezolit davriga oid mikrolit tosh qurollari topildi. Shuningdek, Markaziy Farg'onadagi Uzunko'l va Tayloqko'l atroflaridan mezolit va neolit davrlariga oid 24 ta manzilgoh borligi aniqlandi (1965). So'x vohasidagi 28 g'or va ungurlar (Selungur, Eshma, Obishir, Sur, Bel, Zim, Ovikambar, Bog'ishim va boshqalar) ro'yhatga olindi. Obishir g'orlaridagi madaniy qatlam yaxshi saqlangan. G'orlarni qazish jarayonida mezolit davriga oid tosh qurollar, xayvon suyaklari topilgan. Bular o'sha davr turmushini o'rganish imkonini beradi. 1967 va 1969—70 yillarda Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyi xodimlari mezolit va neolit davrlariga oid 35 ta manzilgohtopdilar. Farg'ona viloyatining arxeologik yodgorliklarini o'rganishda Katta Farg'ona kanalining qazilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Kanalni qazish jarayonida jez davri, quldorlik va zamindorlik jamiyatlariga oid yodgorliklar topildi va tekshirildi. Quva va Toshloq tumanlari o'rtasidagi Akbarobod qishlog'ida jez davriga oid manzilgoh, Marg'ilonsoyning chap sohilida Oqtom qabristoni bo'lganligi aniqlandi. Farg'ona viloyatining Quva tumanida quldorlik davriga oid Taxyontepa, Farg'ona shahrida Simtepa (Chimtepa) kabi yodgorliklar topib o'rganilgan. Ayniqsa, Quva shahridagi miloddan avvalgi 5-asr va o'rta asr boshlariga oid topilmalar

yaхshi tekshirilgan. 10—11-asrlarga doir tarixiy manbalarda bu shahar obodligi va kattaligi jihatidan vodiya Axsikatdan so'ng eng yirik shahar deb qayd qilingan. Arxeologik materiallar Marg'ilon shahri 10-asrda katta qishloq bo'lib, 11 — 12-asrlarda shaharga aylanganligini, Rishton esa 10-asrda katta shahar bo'lsa ham, 11—12 asrlarga kelib qishloq qiyofasiga kirib qolganligini isbotlaydi. O'troq dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan Chust madaniyatiga oid manzilgohlardan topilgan yodgorliklar Farg'ona vodiysini o'rganishda muhimdir. U yerda ishlab chiqarish kuchlari va xo'jalikning taraqqiyoti jez davrining oxirida dehqonchilik qabilalarining ijtimoiy tuzumida o'zgarish yuz berishiga, natijada ibtidoiy tartiblar tugab jamiyatdagi tabaqalanishga olib kelgan. Ro'zg'or anjomlarida xususiy mulkchilik kurtaklari ko'zga tashlanadi. Arxeologik tekshirishlar natijasi Farg'ona viloyatida qadimdan odamlar yashab, ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanganligidan, kishilik jamiyatining keyingi bosqichlarida esa madaniyat rivojlana boshlaganligidan dalolat beradi. Har bir manzilgohga alohida tarif beradigan bo'lsak ularning eng qadimgi selungur g'ori hisoblanadi.

Selung'ur g'ori — Farg'ona vodiysi So'x tumanidagi qadimgi manzilgoh. Selung'ur g'ori Farg'ona shahridan taxminan 100 km janubi g'arbida, Haydarkonning g'arbiy chekkasida joylashgan. Bu ulkan g'orning chuqurligi 120 m, kengligi 34 m va balandligi 25 m. Arxeologik qazish ishlari 1980 yildan buyon olib borilyapti. G'orda 20—40 sm qalinlikdagi beshta madaniy qatlam aniqlandi. Ular biron arxeologik qoldiqlarsiz toza qatlamlar (30—100 sm) bilan bo'lingan. Bu shundan dalolat beradiki, ibtidoiy odamlar mazkur g'orda 5 marta yashaganlar va vaqtvaqti bilan o'z maskanlarini uzoq muddatga tark etishgan. Bu yerdan tosh qurollar, hayvon suyaklari qoldiqlari va arxantrop tipidagi odam qoldiqlari (10 ta tish va yelka suyagining bo'lagi) ning boy kolleksiyasi topildi. Ushbu kolleksiyada qo'l cho'qmori, yirik tosh qirg'ichlar va pichoklar, ko'p miqdorda o'yibkertib ishlangan tishsimon qurollar mavjud. Ular, asosan, yashma, kremniyli chaqmoqtosh, kremniyli ohaktoshlardan tayyorlangan. Madaniy qatlamlardan 32 turdagi yirtqich, tuyoqli, mayda sut emizuvchi va kemiruvchi hayvonlarning suyak qoldiqdari topilib, tadqiq etiladi. Tadqiqotlar natboshlanardiimgi davr tabiiy sharoiti, iqlimi xronologik davrini aniqlashga erishildi. Selung'ur g'oridan topilgan materiallar kompleks o'rganilib, pastki qatlamlarining sanasi 1 mln. Yil deb belgilanadi. Bunga qadar O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston tarixi o'rta paleolit davridan (mil. Av. 100 ming yildan) boshlanardi.

Quva shahristoni—Farg'ona shahridan 40 km sharqda. Quva Farg'ona vodiysidagi eng qadimgi shaharlardan biri. Shaharning vujudga kelishi va nomi haqida turli rivoyatlar mavjud. "Farg'ona tarixi"ning muallifi Ibratning yozishicha, Qubod (yoki Qubo) deb atalib, keyinchalik "Quva" shaklini olgan. Quva va Davan davlati to'g'risida dastlabki ma'lumotlar miloddan avvalgi 2 asrga mansub Xitoy manbalarida keltirilgan. O'sha davrda Quva kengayib qo'handiz, shahriston va rabod kabi uch qismdan iborat bo'lgan. Shahar tevaragi ikki qator qalin va baland mudofaa devori bilan o'ralgan. Rabodda baland (3,6 m) yaxlit tagkursi ustida budda ibodatxonasi qad ko'targan. Ibodatxona 8 asr boshlarida arablar

tomonidan vayron qilingan. 9-12 asrlarda Quva Fargʻonaning yirik, koʻrkam va obod shahriga aylangan. Istaxriyning taʼkidlashicha, Quva kattaligi jihatidan Fargʻonada Axsikatdan keyin ikkinchi shahar hisoblangan. Ibn Havqalning yozishicha, Quva Sayxun (Sirdaryo)gacha yetib boradigan nahr sohilida qad koʻtargan. Uning markazida Registon maydoni, koʻhandizda jome masjidi, rabodida esa saroy, qamoqxona va bozorlari joylashgan. Quva moʻgʻullar istilosi oqibatida vayron etilib, 14-16 asrlarda qasaba shaklidagi maskanga aylangan. Yoqut Hammaviy Quvani katta shahar deb ataydi. Shahar Mahmud Qoshqariyning “Devonu lugʻotit turk” asariga ilova qilingan xaritasida koʻrsatilgan. Quvada hunarmandchilik rivojlangan. Temirchilik va shishasozlik yuksak darajaga yetgan, shaharning oʻz tangasi zarb qilingan. “Boburnoma”da Andijondan 4 ogʻoch (farsax)narida joylashgan qishloq deb aytiladi. Quvada 1956-60 yillarda Ya.Gʻulomov boshchiligida (v.Jukov, I. Ahrorov, V.A.Bulatova, A.Muhammadjonov, H.Muhamedov, M. Aminjonova) arxeologik qazishma ishlari olib borildi. Arxeologik maʼlumotlarga koʻra, oʻrta asrlarda Quvaning umumiy maydoni 100-120 ga ni tashkil etgan. Shundan shahriston 12ga va uning shimoliy-sharqiy burchagidagi arki aʼlo 1ga maydonni egallagan (shahriston va ark qoldiqlari hozirgacha saqlangan). 1998 yil Ahmad al-Fargʻoniyni 1200 yillik yubileyiga tayyorgarlik koʻrish vaqtida Quvada arxeologik qazishmalar olib borildi. Buning natijasida shahristonning mudofaa devori ostidan 8m dan ziyod chuqurlikdan miloddan avvalgi 2-1 asrlarga oid moddiy madaniyat buyumlari topildi. 1998 yildagi qazishma ishlari natijasida shaharning uch darvozasi oʻrni aniqlandi, shahar xarobasi hududidan turar joy binolari majmuasi va uning shimolida 7-8 asrlarga oid budda ibodatxonasi hamda u yerdagi budda ilohlari haykallari topildi. Quvadan bir qancha mashhur kishilar, xususan , Ahmad ibn Muhammad al-Quboviy, Rukniddin Quboviy, Muhammad ibn Muhammad al-Quboviy, Abduqayum Vaxmiy, Shokirjon Hakimiy va boshqalar yetishib chiqqan.

Chust madaniyati – Fargʻona vodiysidagi koʻhna dehqonchilik madaniyati (mil. Av. 2ming yillik oxirgi choragi — 1ming yillik boshlari). Dehqonlar suv boʻyidagi unumdor yerlarni oʻzlashtirilishiga qarab alohida voha yoki guruh tarzida joylashganlar. Chust madaniyati yodgorliklari, asosan, Fargʻona vodiysining shim.sharqiy tumanlarida uchraydi, ularning soni hozirgi 80 dan ortiq. Bu madaniyatga taallukli 1yodgorlik 1950 yil toshkentlik arxeologlar M.E.Voronets va V.I.Sprishovskiylar tomonidan hozirgi Chust shahri yaqinidan topilgan. Madaniyat nomi shundan (mahalliy aholi Buonamozor deb ataydi). 1953—61 ylarda V. I. Sprishevskiy Chust madaniyatida muntazam arxeologik tekshirish ishlari olib borgan. Chust madaniyatini keyingi oʻrganilishida SanktPeterburglik olim Yu.A.Zadneprovskiyning xizmatlari katta boʻlgan. Chust madaniyatining ayrim yodgorliklarida (Dalvarzin, Chuyet) mudofaa inshootlari oʻrganilgan. Andijon viloyati, Jalaquduq tumanidagi Dalvarzin vodiysidagi ilk shahar va oʻziga xos markaz boʻlgani (miloddan avvalgi 12— 7-asrlar) arxeologik jihatdan isbot etilgan. Hozirgi kunda Chust madaniyatida 3 xil turdagi yashash joylari kavlangan: 1) chaylaga oʻxshash yengil uylar; 2) yertoʻlalar; 3) gʻishtpaxsadan qilingan uylar. Chust madaniyati sohiblari, asosan, ilk

sug'orma dehqonchilik (arpa, bug'doy, tariq), chorvachilik, metall (jez)ga ishlov berish, kulolchilik, to'qimachilik bilan shug'ullanganlar; ovchilik, baliq ovlash ham xo'jalikda muhim rol o'ynagan. Bunga arxeologik yodgorliklarni qazish paytida topilgan jez pichoqlar, bigizlar, metallga ishlov berishda ishlatilgan tosh qoliplar, to'qimachilikda qo'llanilgan suyakdan yasalgan taroqsimon asboblardan hamda minglab sopol idishlar guvohlik bermoqda. Uyro'zg'or buyumlari ichida, ayniqsa, naqshindor sopol idishlar ajralib turadi. Naqshlar, asosan, geometrik shaklda qora, jigarrang bo'yoq bilan idish sirtiga berilgan. Ayrim hollarda hayvon tasvirlari (echki) ham uchraydi. Chust madaniyati aholisi marhumlarni o'zlari yashab turgan joyga (uy ichiga va ostonalarga) dafn etishgan. Alohida ajratilgan qabristonlar bo'lmagan. Marhumlarni yakka va ko'pchilik qilib g'ujanak holda yon tomon bilan ko'mganlar. Faqat Dalvarzintepada odam suyagi va kallasi alohida, ikkilamchi bor ko'milgani qayd etilgan. Bunda holda qabrga ko'milgan odamlarning qabrlari ko'pgina hududlardan topilgan. Bulardan tashqari, uy hayvonlari ham ba'zida odam suyaklari bilan birga ko'milgan. Bunday holatda ko'milishi ilk diniy e'tiqodlar yuzaga kelganligi bilan izohlanadi.

#### **XULOSA**

Farg'ona vodiysida juda ham ko'plab dastlabki insonlarning manzilgohlari topilgan. Ularni o'rganish jarayonida bu yerlardan dastlabki mehnat qurollari va ibtidoiy odamlar suyak qoldiqlari topilgan. Yangi manzilgothlar ham topib o'rganilib ro'yxatga olinmoqda. Shuningdek Farg'ona vodiysida ham buddaviylik dini arablar kirib kelgunga qadar gullab yashnaganligi aniq bir fakt va aylanib bormoqda. Chunki Farg'ona vodiysining juda ko'p hududlaridan buddaning haykallari topib o'rganilmoqda. Hozirgi kunda Farg'onada arxeologik tekshiruvlarda Farg'ona davlat universiteti tarix fakultetida ustozlik faoliyati olib borayotgan Qambarov Nasibullo aka faol ravishda ishtirok etmoqda. Ushbu arxeologik izlanishlarga yeyakchilik qilib kelmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Wikipedia//Farg'ona vodiysi.
2. Wikipedia//selungur g'ori.
3. Yigitali Usmonov. Jannat bog'i. Farg'ona, 1995. 101bet.
4. Farg'ona o'lkashunosligi. Farg'ona, 1996. 167bet.
5. Дверняя Кува. В. А. Булатова. ИЗДАТЕЛЬСТВО «ФАН» УЗБЕКСКОЙ ССР ТАШКЕНТ-1972. 115bet.
6. Ibrat. Farg'ona tarixi. Toshkent, 2005. 183bet.
7. O'rta Osiyo arxeologiyasi. A. Sagdullayev, J. Kabirov. Toshkent O'qituvchi nashriyoti. 1990-yil. 162bet.
8. O'zbekiston tarixi. R. H. Murtazoyeva. Toshkent. 2005-yil. 536bet
9. Vatan tarixi. R. Shamsiddinov, Sh. Karimov. Toshkent. Sharq nashriyoti. 2010-yil. 528bet.
10. Arxeologiya. N. Egamberdiyeva. Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti. 2011-yil. 212 bet.